XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-21-147-2-33-K/25 Vobkent tumani

Vobkent tumani boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soligʻini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-6121-sonli Farmoni, Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilayotgan oʻzgartirishlar hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyati boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-21-113-2-0-K/25-son qaroriga asosan Vobkent tumani boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash maqsadida, Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyati boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-21-113-2-0-K/25-son qaroriga asosan Vobkent tumani boʻyicha yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligida moʻljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun miqdori 36 040 000 soʻm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining miqdori 324 soʻm belgilanishi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikov

hamda tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Xolmurodovning mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda kelgusi yil uchun belgilangan tuman mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlarini hisoblab chiqarishda kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash yuzasidan takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini aniqlash uchun qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

- qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlarning 1 gektariga yuridik shaxslar bo‘yicha 2026-yilda Vobkent tumani uchun belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahallalar kesimida 1-ilovaga;

- jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2026-yilda Vobkent tuman uchun 1 kv.m yerga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahallalar kesimida 2-ilovaga;

- 2026-yil Vobkent tumani uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga;

- 2026-yil Vobkent tumani uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-020-2-33-K/24-sonli qarori 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Tuman hokimligi ushbu qaror bilan ma’qullangan Vobkent tumani bo‘yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarni ommaviy axborot vositalarida va tuman hokimligining rasmiy vebsaytida e’lon qilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

OSTONOV AKMAL ANVAROVICH

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-147-2-33-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlarning 1 gektariga yuridik shaxslar boʻyicha 2026-yilda Vobkent tumani uchun belgilangan yer soligʻining bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahallalar kesimida

Hozirgi kunda mavjud mahallalar boʻyicha

T/p	Hududlar nomi	Mahalla nomi	2026-yil uchun		
			2026-yil Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka (soʻm)	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qaroriga asosan qoʻllanilgan koeffitsiyent	2026-yil soliq stavkasi (soʻm)
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	Vobkent tumani	Xalach MFY	36 040 000	1,27	45 770 800
2	Vobkent tumani	Churikalon MFY	36 040 000	1,01	36 400 400
3	Vobkent tumani	Anjirbog MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
4	Vobkent tumani	Panob MFY	36 040 000	1,02	36 760 800
5	Vobkent tumani	Rozmoz MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
6	Vobkent tumani	Sariasiya MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
7	Vobkent tumani	Sufidexkan MFY	36 040 000	1,01	36 400 400
8	Vobkent tumani	Teraklik MFY	36 040 000	0,82	29 552 800
9	Vobkent tumani	Uzbakon MFY	36 040 000	0,82	29 552 800
10	Vobkent tumani	Xajuvon MFY	36 040 000	1,12	40 364 800
11	Vobkent tumani	Niyazxuja MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
12	Vobkent tumani	Xayrabod MFY	36 040 000	0,82	29 552 800
13	Vobkent tumani	Xujarabat MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
14	Vobkent tumani	Changaron MFY	36 040 000	1,01	36 400 400
15	Vobkent tumani	Xayrxush MFY	36 040 000	1,02	36 760 800
16	Vobkent tumani	Shoxnigor MFY	36 040 000	0,82	29 552 800
17	Vobkent tumani	Shirin MFY	36 040 000	1,02	36 760 800
18	Vobkent tumani	Shanba MFY	36 040 000	0,82	29 552 800
19	Vobkent tumani	Shakarkent MFY	36 040 000	1,05	37 842 000
20	Vobkent tumani	Nayman MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
21	Vobkent tumani	Charmgaron MFY	36 040 000	1,18	42 527 200
22	Vobkent tumani	Mirvoshi MFY	36 040 000	0,82	29 552 800
23	Vobkent tumani	Muminobod MFY	36 040 000	1,05	37 842 000
24	Vobkent tumani	Beshrabot MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
25	Vobkent tumani	Bozorjoyi MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
26	Vobkent tumani	Gulistan MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
27	Vobkent tumani	Diyor MFY	36 040 000	0,89	32 075 600
28	Vobkent tumani	Dustlik MFY	36 040 000	1,18	42 527 200
29	Vobkent tumani	Istiklol MFY	36 040 000	1,18	42 527 320
30	Vobkent tumani	Vabkent MFY	36 040 000	1,18	42 527 200
31	Vobkent tumani	Kosari MFY	36 040 000	1,12	40 364 800
32	Vobkent tumani	Kukin MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
33	Vobkent tumani	Kuliodina MFY	36 040 000	0,93	33 517 200
34	Vobkent tumani	Kulolchi MFY	36 040 000	1,13	40 725 200
35	Vobkent tumani	Kulxatib MFY	36 040 000	1,01	36 400 400
36	Vobkent tumani	Kumushkent MFY	36 040 000	1,11	40 004 400
37	Vobkent tumani	Kuruvchi MFY	36 040 000	1,18	42 527 200
38	Vobkent tumani	Katagan MFY	36 040 000	0,93	33 517 200

39	Vobkent tumani	Latifsobungar MFY	36 040 000	1,05	37 842 000

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-147-2-33-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan tashqari) 2026-yilda Vobkent tumani uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahallalar kesimida

Hozirgi kunda mavjud mahallalar boʻyicha

T/r	Hududlar nomi	Mahalla nomi	2026-yil uchun		
			2026-yil Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka (soʻm)	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining qaroriga asosan qoʻllanilgan koeffitsiyent	2026-yil soliq stavkasi (soʻm)
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	Vobkent tumani	Xalach MFY	324	1,01	327,2
2	Vobkent tumani	Churikalon MFY	324	1,01	327,2
3	Vobkent tumani	Anjirbog MFY	324	1,01	327,2
4	Vobkent tumani	Panob MFY	324	1,01	327,2
5	Vobkent tumani	Rozmoz MFY	324	0,92	298,1
6	Vobkent tumani	Sariasiya MFY	324	0,92	298,1
7	Vobkent tumani	Sufidexkan MFY	324	1,01	327,2
8	Vobkent tumani	Teraklik MFY	324	0,92	298,1
9	Vobkent tumani	Uzbakon MFY	324	0,92	298,1
10	Vobkent tumani	Xajuvon MFY	324	1,01	327,2
11	Vobkent tumani	Niyazxuja MFY	324	1,18	382,3
12	Vobkent tumani	Xayrabod MFY	324	0,92	298,1
13	Vobkent tumani	Xujarabat MFY	324	1,01	327,2
14	Vobkent tumani	Changaron MFY	324	1,01	327,2
15	Vobkent tumani	Xayrxush MFY	324	0,92	298,1
16	Vobkent tumani	Shoxnigor MFY	324	0,92	298,1
17	Vobkent tumani	Shirin MFY	324	1,01	327,2
18	Vobkent tumani	Shanba MFY	324	0,92	298,1
19	Vobkent tumani	Shakarkent MFY	324	1,18	382,3
20	Vobkent tumani	Nayman MFY	324	0,92	298,1
21	Vobkent tumani	Charmgaron MFY	324	1,22	395,3
22	Vobkent tumani	Mirvoshi MFY	324	1,01	327,2
23	Vobkent tumani	Muminobod MFY	324	1,01	327,2
24	Vobkent tumani	Beshrabot MFY	324	1,01	327,2
25	Vobkent tumani	Bozorjoyi MFY	324	1,01	327,2
26	Vobkent tumani	Gulistan MFY	324	1,01	327,2
27	Vobkent tumani	Diyor MFY	324	0,92	298,1
28	Vobkent tumani	Dustlik MFY	324	1,22	395,3
29	Vobkent tumani	Istiklol MFY	324	1,22	395,3
30	Vobkent tumani	Vabkent MFY	324	1,22	395,3
31	Vobkent tumani	Kosari MFY	324	1,01	327,2
32	Vobkent tumani	Kukin MFY	324	1,01	327,2
33	Vobkent tumani	Kuliodina MFY	324	1,01	327,2
34	Vobkent tumani	Kulolchi MFY	324	1,22	395,3
35	Vobkent tumani	Kulxatib MFY	324	1,01	327,2
36	Vobkent tumani	Kumushkent MFY	324	1,01	327,2
37	Vobkent tumani	Kuruvchi MFY	324	1,22	395,3

38	Vobkent tumani	Katagan MFY	324	0,92	298,1
39	Vobkent tumani	Latifsobungar MFY	324	1,18	382,3

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-147-2-33-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026 yil Vobkent tumani uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

MIQDORI

T.P	Tuman nomi	Faoliyat turlari kesimida		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent миқдори	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qoʻllaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Vobkent tumani	1,10	1,07	1,07

Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-147-2-33-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026 yil Vobkent tumani uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

MIQDORI

№	Tuman nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub		Marmar soʻm/m.kub		Granitlar soʻm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna		Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub		Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub	
		Koeffitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi	Koef-fitsiyent	Soliq stavkasi
1	Vobkent tumani	1,10	7 250,1	1,12	11 984,0	1,00	21 400,0	1,12	35 952,0	1,10	18 772,6	1,15	5 684,5	1,15	6 152,5